

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



**Бош мұхаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул мұхаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бүйіча проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул мұхаррир үринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бүлими бошлиғи Р.Жалалов

## ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдураҳмонов.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хұжалиги фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Аскаров, с.ф.д., проф. Т.Файзулаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** – ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф. Ү.Аскарова, п.ф.н., доц. М.Нишинов, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишинова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник мұхаррир:** Н.Юсупов

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи құчасы, 316-үй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсаты қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйіча Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асоссай илмий нәтижаларини чөп этиши тавсия этилған илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридан Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома ға биноан чөп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)ға эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида мұхокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чөп этишига рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



## YOZUVCHI IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

Hamidova Muhayoxon Obidovna filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.  
Namangan davlat universiteti

*Annotatsiya:* Hozirgi o'zbek adabiyotining etakchi vakillaridan biri - Shukur Xolmirzayev ijodi shu nuqtai nazardan alohida diqqatga loyiq. Sababi, adib o'z ijodida qahramonlarni keng, epik ko'lama, badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan aks ettirib bera olgan ijodkordir. Adib ijodi o'ziga xos shaxsiy badiiy uslub sohibi sifatida tanqidchilikdan, bироqlamalikdan, bayonchilikdan qochadi. So'zga xasis bo'lsa-da faqat o'quvchiga to'la va yorqin etkazishga erishadi. Biroq ba'zan uning asarlari tugallanmagandek tassurot uyg'otadi. O'quvchi asar davomini kutadi. Qahramonlar portretini chizmaydi, asosiy e'tiborni xarakter yaratishga qaratgandek ko'rindi. Bu esa o'quvchini o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga undaydi. Asar qahramonlari ustidan chiqarilgan hukm o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi o'ziga xos badiiy uslubi xususida fikr yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* badiiy niyat, ijodiy jarayon, badiiylik, yozuvchi mahorati, so'z san'atining o'rni, badiiy-tasviri vositalar.

### СПЕЦИФИКА РАБОТЫ ПИСАТЕЛЯ

Хамидова Мухайёхон Обидовна  
кандидат филологических наук, доцент  
Наманганский государственный университет

**Аннотация:** Особого внимания в этой связи заслуживает творчество Шукура Холмирзаева, одного из ведущих представителей современной узбекской литературы. Причина в том, что писатель умеет изображать героев в широком, эпическом масштабе, с большим художественным мастерством. В творчестве автора, как личности со своим художественным стилем, избегается критика, однобокость, повествование. Хотя он сосредоточен на создании персонажей. Это побуждает ученика задуматься, глубоко задуматься. До сведения читателя доводится приговор главным героям произведения. В статье рассматривается уникальный художественный стиль Шукура Холмирзаева в повествовании.

**Ключевые слова:** художественный замысел, творческий процесс, искусство, письменные навыки, роль слова, художественные средства.

### THE SPECIFICITY OF A WRITERS'S WORK

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna  
Candidate of philological sciences, dosent of Namangan State University

*Annotation:* The work of Shukur Kholmirzaev, one of the leading representatives of modern Uzbek literature, deserves special attention in this regard. The reason is that the writer is able to depict the heroes in a wide, epic scale, with great artistic skill. The author, as a master of his own artistic style, avoids criticism, one-sidedness, narrative.

Although he is sensitive to words, he can only convey a complete and vivid message to the reader. However, sometimes it seems that his works are not finished. The student waits for the work to continue. He doesn't paint portraits of heroes, he seems to focus on character creation. This encourages the student to think, to think deeply. The verdict on the protagonists of the work is brought to the reader's attention. This article discusses Shukur Kholmirzaev's unique artistic style in storytelling.

**Key words:** artistic intention, creative process, art, writing skills, the role of word art, artistic means.

Xalqimizning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni yuksak umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda san'atning, jumladan, adabiyotning ahamiyati va o`rni salmoqlidir.

Badiiy adabiyotdagi estetik kategoriyalar inson obrazini tasvirlash san`ati bilan uzviy bog'langandir. Zotan, adabiyotning o`ziga xos xususiyatini belgilovchi bosh maqsadi ham insonning turli xil ruhiy kechinmalari, uning ma'naviy olami, hayotda tutgan o`rni va orzu-tilishlarini tasvirlashdan iboratdir. Shu sababdan ham akademik Izzat Sulton "Insonshunoslikdan iborat badiiy adabiyot asarida biz odamlarning turli darajada tafsilot va chuqurlik bilan tasvirlanganligining guvohi bo`lamiz", - deb yozgan edi. Badiiy asarda tasvirlangan inson obrazi qahramon tushunchasini anglatadi. Yozuvchining hayotdagi voqealarga yoki ma'lum bir toifadagi kishilarga o`zining badiiy asarida bildirgan estetik munosabatining o`ziga xos hosilasi qahramon yoki obrazlar tizimi tarzida ifoda etiladi.

Qahramon tushunchasi adabiyotshunoslikda xarakter yo obraz atamalari bilan ham yuritiladi. I.Sultonning fikricha: «Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir»<sup>38</sup>. Demak, badiiy adabiyotdagi qahramon xarakteri hozirgi davr adabiyotida o`ziga xos ko`rinishlarda namoyon bo`lmokda. Buni biz hozirgi o`zbek hikoyachiligining obrazlar tizimi va qahramonlari misolida ham yaqqol ko`ra olamiz.

Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi hayot va inson tasvirining asosiy syujet o`zaklarini tashkil etadi. Ayni paytda yozuvchining dastlabki hikoyalaridan boshlab bo`rtib ko`zga tashlangan va butun ijodida qayta-qayta qo'llanilgan tasvir usuli uning hikoyachilikdagi o`ziga xos uslubini tashkil etuvchi unsurlar darajasiga ko`tarilganligi e'tiborga loyiqdир. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi syujet o`zaklarining o`zaro yaqinligi shundaki, adib faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg'otmasligi kerak. Zero, uning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalarda, ularning jamiyatga, tevarak-atrofidagi odamlarga bo`lgan munosabatlarida, o`y-kechinmalarida, ma'naviy dunyosida bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjudki, bu yozuvchining badiiy iqtidori va poetik so`zni his qilish tamoyili nihoyatda teranligini ko`rsatadi.

Uslub yozuvchining badiiy mahoratini ko`rsatadigan adabiy hodisa bo`lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim estetik va ijtimoiy-badiiy ahamiyatga ega bo`lgan masaladir.

Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tadqiq, etish yozuvchining ijtimoiy voqelik haqida, davr kishilari, ularning ,hayoti, faoliyati va o`y-kechinmalari to`g'risida o`ziga xos badiiy fikr yuritishi, poetik idrok etilgan voqelikni badiiy tahlil qila olishi xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Masalan, adabiyotshunos olim H.Boltaboevning ta'kidlashicha Sh.Xolmirzayev uslubida M.Sholoxov, A.Qahhor kabi etuk yozuvchilar ijodida sinalgan, yuqori pog'onaga ko`tarilgan shafqatsiz realistik tasvir an'anasi ustuvor. Shukur Xolmirzayev uslubining yana bir muhim jihat shundaki, yozuvchi o`z hikoyalarida o`ziga xos insoniy sajiya va taqdirga ega bo`lgan

<sup>38</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi.—Toshkent: O'qituvchi, 1980.-B.191.



qahramonlarga murojaat etadi, ular mohiyatini nutk, va xatti-harakatlari orqali ifodalashga erishadi.

Adibning badiiy mahorati haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, albatta, uning hikoyalariга murojaat etgan ma'qul. Uning "Tabassum", "O'zbek xarakteri" kabi hikoyalari ham badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan asarlaridan sanaladi.

"Ko'k dengiz" (1991) hikoyasi Shukur Xolmirzayevning istiqlol mavzuida yaratilgan, o'quvchini mushohada qilishga, fikrlashga chorlaydigan eng yorqin asarlaridan biridir.

Hikoya qahramoni oltoylik turk - Umrzoq (Ivan Ivanovich). U bir vaqtlar kattagina olim bo'lgan. Oliy o'quv yurtlarida dars bergan. Oltoyda mahalliy aholini yoppasiga ruslashtirish boshlanganda, bu harakatga qarshi turgani uchun millatchilikda ayblanib, surgun qilingan. Qamoqdan qaytgach, o'z uyida yashashiga ruxsat berilmaydi va ro'yxatga olinmaydi. Tirik turib oilasidan mahrum bo'ladi. Ichkilikka beriladi. Kechagi olim endi o'z Vataniga sig'maydi, noilojlikdan erto'lalarda yashaydi. Shu ahvolda ham fikri-zikri millat qismatida. Ahvol shu darajaga yetadiki, boshqalar zamonning milliy siyosatini ko'klarga ko'tarib, amal pillapoyalaridan o'rmalayotgan bir paytda, bu xo'rangan qalb o'z millatiga mansub bolakaylarni yerto'laga chaqirib, xalqining o'tmishi, urf-odatlari, madaniyati haqida rivoyatlar aytib beradi.

Asar boshida bir piyonistamikan, deb ishtibohga berilgan qahramonga sekin-asta mehr qo'yanimizni sezmay qolamiz. Bir g'arib inson hasrati (taqdiri)da bovujud bir millat qismati namoyon bo'layotganini idrok eta boshlaymiz.

Hikoya nihoyasida qahramonning xarakteri yanada teranroq tasvirlanadi. Ma'lum bo'lishicha, u O'zbekistonga faqat uy, ichkilik yoxud xotirjam turmush kechirish uchun emas, o'zining xalqi bilan ildizi bir bo'lgan bu tomondagi turkiy xalqning ahvolini o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyоqida, yuragining tubida so'roq belgisiga aylanib qolgan savollariga javob topish ilinjida kelgan ekan. Bu yerda ham o'z yurtidagi kabi ahvolni ko'rgach, ko'k dengizdek toza va mahobatli dunyoning zaharlanayotgan ko'lga aylanib borayotganini anglagach, bu yurtga ham sig'may qoladi, darveshona tentirab, bosh olib ketadi.

Shukur Xolmirzayev "Ko'k dengiz" asariga faqat oltoy, o'zbek xalqini emas, Sovet Ittifoqi deb atalgan sho'rolar mamlakatidagi ko'pdan-ko'p xalqlarning XX asr nihoyasidagi milliy dard-alamlarini singdira oldi.

"Ko'k dengiz" o'zbek hikoyachiligining xalqaro nufuzini ko'taradigan, jahon hikoyachiligining nodir namunalari qatorida tura oladigan darajadagi asardir.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalari ustida ilmiy tadqiqot olib borgan yosh olima Sh.Doniyorova bu hikoya haqida fikr yuritib, quyidagilarni yozadi: "Yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirish uchun atigi bittagina qahramonni tanlaydi. Adib ko'targan umuminsoniy ahamiyatga molik muammo nimadan iborat? Uning maqsadi nimada? Birinchidan, Umrzoq aytgan qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, marosim va urf-odatlar o'zbek xalqiga ham xosdir. Ikkinchidan, Umrzoq intilgan va u ardoqlagan "Ko'k ko'l" - aslida Orol dengizi bo'lib, uning fojiasi nafaqat Orolbo'yи xalqlari, balki oltoyliklarning ham fojiasidir. Ko'k dengiz - Umrzoq nazarida, mustaqillik mavjud bo'lgan o'lka. Baliqlar esa mustaqillikni orzu qilgan o'lkaning odamlari"<sup>39</sup>.

O'z qismatini Vatan va el taqdiri bilan uzviy bog'lagan, Vatan mustaqilligi yo'lida o'limga ham tayyor turgan irodali fojeiy qahramon - Umrzoq obrazi vositasida Shukur Xolmirzayev o'z oldiga maqsad qilib qo'yanan badiiy niyatini muvaffaqiyat bilan poyoniga etkazadi.

"Ko'k dengiz" istiqlol va milliy o'zlikni anglashga bag'ishlangan hikoyalari ichida ham badiiy jihatdan, ham ijtimoiy-siyosiy jihatdan yetuk asarlardan biri sanaladi.

Tadqiqotchilar Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy saviyasini yuqori baholashadi. Jumladan, adabiyotshunos olima Sh.Doniyorova shunday fikrni ilgari suradi: "Shukur Xolmirzayev

<sup>39</sup> Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 2000. - B. 14.



hikoyalari o`ziga xos ifoda usullariga, tasvir ohangi, ritmikasi bilan ham e'tiborlidir. Yozuvchi fikrini qisqa va lo`nda ifodalashga odatlangan. Uning tengdoshlaridan U.Nazarovda "tushuntirish" uslubi, O`Hoshimovda "ruhiy holatni tasvirlash" ustuvorlik qiladi. Shukur Xolmirzayev uslubida o`rinsiz pauza, voqealar tavsifida keraksiz uzilishlar yo`q. Bu hodisa rus adabiyotida A.P.Chexov, o`zbek adabiyotida Abdulla Qahhor ijodida kuzatilgan edi"<sup>40</sup>.

Uning hikoyalarda qahramonlar ma'naviy olamining kengligi, qahramon mahalliy muhit farzandi sifatida gavdalaniishi va o`zida millatning xarakterli fazilatlarini umumlashtirishi, shuningdek, qahramon tabiatidagi milliy tuyg'ularning umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishi kabi xususiyatlar yozuvchi uslubiga bevosita dahldor fazilatdir.

Sh.Xolmirzayev ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e'tiborida bo`lgan. Jumladan, U.Normatov, I.G'afurov, A.Kattabekov, H.Boltaboyev va boshqalarning tadqiqot, risola va maqolalarida Sh.Xolmirzayev asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmati to`g'risida fikr va mulohazalar bildirilgan. Yuqorida tilga olingan ishlarda Sh.Xolmirzayevning uslubiy izlanishlariga doir ayrim ilmiy mulohazalar ham mavjud. Masalan, U.Normatov Sh.Xolmirzayev bilan qilgan suhbatida yozuvchi uslubiga oid o`z mulohazalarini quyidagicha bayon etgan: "Siz saviyasi baland kitobxonni ko`z oldingizga keltirib turib qalam tebratsangiz kerak. Siz qalamga olgan hodisalar aksari dramatizmga, ehtiroslarga nihoyatda boy bo`ladi, lekin siz ularni iloji boricha pinhon tutasiz, kitobxonning o`zi ilg'ab olishiga ishonasiz, Bu hol ba`zan tasvirdagi ta`sirchanlikni, jozibani susaytirib qo'yadi"<sup>41</sup>. Yana shu muallif O`Hoshimov bilan qilgan suhbatida esa yozuvchi uslubining individual xarakteri haqida fikr yuritib: "Shuni ham unutmaslik kerakki, bir yozuvchi umrbod biror uslubiy yo`nalish doirasida qololmaydi. Masalan, sizga tengdosh yozuvchilardan biri Sh.Xolmirzayev ko`proq, olis tasvir yo`liga moyil. Biroq, u ham ba`zan liro-publisistik ruh barq urib turgan asar yaratadi", - deydi<sup>42</sup>.

Sh.Xolmirzaev hikoyalardagi hayot va inson tasvirining asosiy syujet o`zaklarini tashkil etadi. Ayni paytda yozuvchining dastlabki hikoyalardan boshlab bo`rtib ko`zga tashlangan va butun ijodida qayta-qayta qo`llanilgan tasvir usuli uning hikoyachilikdagi o`ziga xos uslubini tashkil etuvchi unsurlar darajasiga ko`tarilganligi e'tiborga loyiqdir. Adibhikoyalardagi syujet o`zaklarining o`zaro yaqinligi yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg'otmasligi kerak. Zero, uning hikoyalarda tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalar-da, ularning jamiyatga, tevarak-atrofidagi odamlarga bo`lgan munosabatlarida, o`y-kechinmalarida, ma`naviy dunyosida bir- birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjudki, bu yozuvchining badiiy iqtidori va poetik so`zni his qilish tamoyili nihoyatda teranligini ko`rsatadi.

60-yillar o`zbek hikoyachiliga Sh.Xolmirzayev qahramonning qanday yangi tipini olib kirdi. Bizningcha, uning hikoyalardagi qahramon, eng avvalo, o`zining ruhiy va aqliy salohiyatining rang-barang shakllari bilan namoyon bo`ladi. Sh.Xolmirzayev o`z qahramonlarining ichki hayoti va ruhiy kechinmalarini, aql-zakovatini, umuman ma`naviy olamini ochish bilan jamiyatimizdagi millatimiz orasidagi mavjud hayotiy tiplarning umumlashma obrazini ko`rsata oldi.

<sup>40</sup> Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzaev hikoyalaringin badiiy-uslubiy o`ziga xosligi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. avtoref. -Toshkent, 2000. - B. 16.

<sup>41</sup> Boltaboyev H-Nasr va uslub. - T.: Fan, 1992. - B. 105.

<sup>42</sup> Normatov U. Qalb inqilobi. - T.: Adabiyot va san`at, 1986. - B. 342.



Yozuvchi har bir qahramoniga xolis munosabatda yondashadi. qahramon xoh ijobjiy, xoh salbiy bo'lishidan qat'iy nazar, ularga xayrixohligini bildirmaydi. Shuning uchun ham o'quvchi hech bir qahramon taqdiriga e'tiborsiz qaray olmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1980.-B.191.
2. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalaring badiiy-uslubiy o'ziga xosligi: Filol. Fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 2000. - B. 14.
3. Boltaboyev H- Nasr va uslub. - T.: Fan, 1992. - B. 105.
- 4.Normatov U. Qalb inqilobi. - T.: Adabiyot va san'at, 1986. - B. 342.
- 5.Toshpo'latov A. Shukur Xolmirzayevning novellistik mahorati // [www.jurnal.fledu.uz](http://www.jurnal.fledu.uz). B. 170-175.
- 6.Xolmirzayev Sh. Bodom qishda gulladi. - T.: Adabiyot va san'at, 1986. - B. 113.
7. Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri // Sharq yulduzi. - 1988. - № 11. - B. 32-33.

## НАСР ВА НАЗМ УЙГУНЛИГИ

Санобар Абдураҳмонова, "Ўзкимёсаноат" акционерлик жамияти бошқаруви раиси  
маслаҳатчisi, НамДУ мустақил изланувчisi  
Ғойиббоева Райхоной Аҳмаджоновна  
НамДУ, филология факультети ўқитувчisi

**Аннотация.** Мақолада Навоий нафрий асарларидаги шеърларнинг жанр таркиби ва бадиий хусусиятларини ўрганиши, аллома ижодий меросининг кўламини ёритиб бериш, насрий асарларига хос бадиий ва услубий хусусиятларни аниқлаши, Навоийнинг ўзбек мумтоз адабиётига қўшиган муносаб ҳиссасини ёритиши кўзда тутилган.

Белгиланган мақсаддан келиб чиқиб, тадқиқотда қуидаги вазифаларни ҳал этиши кўзда тутилди:

-Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги шеърларнинг жанр таркибини аниқлаши ва уларнинг бадиий хусусиятларини замонавий фан талаблари нуқтаи назаридан таҳлил этиши;

-Навоий насли бадиияти, ижодий жараёни хусусиятларини мавзу доирасида ёритиши.

**Калим сўзлар:** Навоий насли бадиияти, назм, насрий асарлар, лафзий ва маънавий санъатлар, сажъ санъати, сажъи мутавози, сажъи мутарраф, сажъи мутавозин.

## СОЧЕТАНИЕ ПРОЗЫ И ПОЭЗИИ

Санобар Абдураҳмонова, председатель правления АО  
«Ўзкимёсаноат», советник, независимый кандидат НамГУ  
Гайбаева Райхоной Аҳмаджановна  
Преподаватель НамГУ, филологического факультета

**Аннотация.** Статья направлена на изучение жанровой структуры и художественных особенностей стихотворений в прозе Навои, выявление масштабов творческого наследия ученого, выявление художественно-стилистических особенностей прозаических произведений, выделение достойного вклада Навои в узбекскую классическую литературу.

Исходя из заявленной цели, исследование направлено на решение следующих задач:

- определить жанровую структуру стихотворений в прозе Алишера Навои и проанализировать их художественные особенности с точки зрения современной науки;



МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Yorug'lik nurining yuqori sezgir bo'yоq tarkibli quyosh foto elementlariga ta'sirini o'rGANISH.	
	To'lqinov M.A.....	3
2	A-Si:H асосидаги структураларда ёруғликни нотекис ютилишини фотоэлектрик параметрларга таъсирини лазер ёрдамида тадқиқ қилиш.	
	Бабаходжаев У.С., Набиев А.Б., Нематуллаев Ж.Р., Исабоева Ф.Д., Хайдарова Ф.Б., Тўхтаралиев А.Ш.....	7
3	Python tilida xabar Dayjestlari bilan ishlash	
	Otaxanov N.A.....	13
4	Вероятность наследования несвязанных генов В 5-М поколении	
	Полванов Р.Р., Шарипов Ф.М.....	18
5	Иммиграцияли Беллман-Харрис тармоқланиш жараёнини яшаш даври	
	Машраббоев А., Умматалиев У.И., Ибрагимова Н.А.....	20

КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

6	Metallarni cho'zish uchun olingan yangi compositini infraqizil spektrofotometr tahlili	
	Doliev G', Abdulkayev A., Umaraliev J., Jo'raev B., G'ofurov I. ....	24
7	Shaftoli mevasining kimyoviy tarkibi va inson organizmiga ta'siri.	
	Dehhqonov R.S., Muminova M.R.....	29
8	Phlomoides Kaufmanniana o'simligining element tahlili.	
	Muradov M.T., Karimov A.M. ....	33
9	Murakkab oksidli birikmalarda piroxlor tipli tuzilishga ega $\text{Na}_x\text{K}_{y-x}\text{SByW}_{2-y}\text{O}_6$ tarkibli fazalar hosil bo'lishi	
	Bozorov X.N., Lupitskaya Yu.A., Doliyev G.A., Buchelnikov V.D., Abdullaeva G.U.....	37
10	Fatalimid asosida olingan sorbentning sorbsion sig'imiini aniqlash	
	G'afforova Sh., Turayev H.X., Sottiqulov E.S., Babamuratov B.E.....	41
11	Metallarni cho'zish uchun olingan yangi compositini elektron mikroskop va element tahlili tahlili	
	Doliev G. A., Abdulkayev A. B., Umaraliev J., Xabibullaev X., Saydullaeva G.....	46
12	Карбоксиметилхитозан Bombyx Mori асосида нанотола олиш шароитлари	
	Саттарова Д.М., Саттаров Т.А.....	51



57	Okkazionalizmlarning badiiy-estetik vazifalari	274
	Abdurahmanova M.T., Mamajonova D.A. ....	
58	Viktorian davrida gender aloqalari Muammosi (Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asari misolida)	278
	Rashidova F.R. ....	
59	O'zbek tili toponimiyasida antropotoponimik transonimizatsiya	283
	Sativoldiyeva D.S. ....	
60	Tarjimada badiiy san'atlarni qayta yaratish masalalariga doir	287
	Sidiqov Q.A. ....	
61	Yozma adabiyot va folklor munosabatlari. « Qutadg'u- bilig » asarda folkloarning tutgan o'rni	292
	MohiraT.I. ....	
62	Madaniy nutqda propozitiv nominatsiya va denotat tuzulishi	296
	Usmonova X.Sh. ....	
63	O'zbek xalq maqollarida nonning ulug'lanishi	301
	Erkinova F.M. ....	
64	Абдулла Қодирийнинг Ўткан кунлар романида ишлатилган сўзларнинг морфологик таснифи ва тавсифи.	306
	Абдураззоқов. Э.Ғ ....	
65	XIX асрнинг охири - XX аср бошлари ўзбек шеъриятида халқчиллик ва миллийлик тасвири	314
	Барзиев О.Х. ....	
66	Zamonaviy ta'lim usullari nazariyasiga turli yondishalar	321
	Zakirov M.N. ....	
67	Китобот санъатини ўргатишда фанлараро интеграциядан фойдаланиш	325
	Абдуллаев К.А. ....	
68	Кўнгил ва назар поклиги талқини	332
	Рузибоеv Т.Х. ....	
69	Чустий лирикасида маънавий санъатлар	336
	Отаханова М.М. ....	
70	Yozuvchi ijodining o`ziga xosligi	343
	Hamidova M.O. ....	
71	Наср ва назм уйғунылиги	347
	Санобар А., Ғойиббоева Р.А. ....	
72	Усмон Азим шеъриятида дунё ва инсон муносабатлари ифодаси	351
	Тажибаева Д.Э. ....	
73	Improving students' activity through interactive games	356
	Otaxanova D.M. ....	
74	Немис адаби М.Правдин ижодида Бобур Мирзо талқини.	360
	Турсунов А. ....	
75	Синфдан ташқари тўгаракларда Мухаммад Юсуф ижодидаги ўзбек фольклор мотивларини ўргатиш	363
	Сайдахмедова Н.С. ....	
76	Залоги глаголов в сравниваемых языках ( русский и узбекский язык)	368
	Саттарова Ф.У., Бекпулатова О.М. ....	